

MILLIY MANFAATLARNING IFODALARI VA NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI.

G. X.Xudayberdiyeva

TerDU. Yuridik fakultet.

Annotatsiya: *Maqolada har bir millatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – milliy manfaat tushunchasi tahlil qilingan. Ijtimoiy manfaatlarni tarixiy rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining garovi ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *millat, milliylik, manfaat, jamiyat taraqqiyoti.*

ФОРМЫ ВЫРАЖЕНИЯ И ПРОЯВЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ.

Г. X.Худайбердыева

ТерГУ. Юридик факультет.

Аннотация: *В статье анализируется понятие национальные интересы и его особенности. Критикуется отсутствие к национальные интересы. Значение национальных интересов в процессе общественные развития.*

Ключевые слова: *нация, национальные интересы, общественное развитие.*

FORMS OF EXPRESSION AND MANIFESTATION OF NATIONAL INTERESTS.

G. Kh. Khudayberdieva

TerSU. Law Faculty.

Annotation: *The article describes one of the characteristics of each nation, analysis of national interest. It emphasized that the historical development of social benefits is the key to the development of society.*

Keywords: *nation, nationality, benefit, community development.*

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin yurtimizda demokratik, insonparvar, farovon, erkin davlat qurishni o‘zining asosiy vazifasi deb belgilab oldi. Mana shu vazifadan kelib chiqib O‘zbekistonda amalga oshiriladigan siyosiy, iqtisodiy hayotni,

davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishini keng qamrovli, ulug‘vor jarayon deb baholaydi.

Darhaqiqat, bu jarayon hayotimizning barcha sohalarini qamrab oladi. Ammo u avvalo insonlar kirishadigan o‘zaro munosabatlar, aloqalar tizimiga tegishlidir. Inson, oila, mahalla, mehnat jamoasi, davlat-bular o‘rtasidagi munosabatlar doimo fuqaro va davlat o‘rtasidagi aloqalarda yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Ularning zamirida har bir shaxs, har bir fuqaroning manfaatlari yotganligini anglash qiyin emas. Agar biz odamlarning birgalikdagi munosabatlarini binoga qiyos qilsak, har bir insonning manfaatlari shu binoga qo‘yilgan g‘ishtlarga o‘xshaydi.

Alohida g‘ishtlardan ulkan bino bunyod bo‘lgani kabi, har bir inson manfaatlaridan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va ularni bog‘lab turuvchi ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar barpo bo‘ladi. Odamlarimizning bir-biriga mushtarak bog‘laydigan asos bo‘lib esa manfaatlar uyg‘unligi xizmat qiladi. Barchamizning bugungi hayotimizni erkinlashtirish sohasidagi vazifalar haqida fikr yuritar ekan, birinchi Prezidentimiz “jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur”, deb qayd qilgan edilar. Bu esa manfaatlar masalasidir.

Manfaat – biron-bir narsaga jalb etilish darajasi, undagi ishtirok, qiziqish bildirish, moyillikdir. Moddiy jihatdan manfaat- foyda unum bilan bog‘liq (shu ma’noda “o‘z manfaatlariga ega bo‘lish” degan ibora ishlatiladi). Biror-bir narsaga, hodisaga qiziqishi bo‘lgan odam manfaatdor shaxs deyiladi. Agar bu doimiylik xususiyatiga ega bo‘lsa, u manfaatli shaxsga aylanadi.

Darhaqiqat, bu jarayon hayotimizning barcha sohalarini qamrab oladi. Ammo u avvalo insonlar kirishadigan o‘zaro munosabatlar, aloqalar tizimiga tegishlidir. Inson, oila, mahalla, mehnat jamoasi, davlat-bular o‘rtasidagi munosabatlar doimo fuqaro va davlat o‘rtasidagi aloqalarda yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Ularning zamirida har bir shaxs, har bir fuqaroning manfaatlari yotganligini anglash qiyin emas. Agar biz odamlarning birgalikdagi munosabatlarini binoga qiyos qilsak, har bir insonning manfaatlari shu binoga qo‘yilgan g‘ishtlarga o‘xshaydi. Alohida g‘ishtlardan ulkan bino bunyod bo‘lgani kabi, har bir inson manfaatlaridan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va ularni bog‘lab turuvchi ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar barpo bo‘ladi.

Odamlarimizning bir-biriga mushtarak bog‘laydigan asos bo‘lib esa manfaatlar uyg‘unligi xizmat qiladi. Barchamizning bugungi hayotimizni erkinlashtirish sohasidagi vazifalar haqida fikr yuritar ekan, birinchi Prezidentimiz “jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur”, deb qayd qilgan edilar. Bu esa manfaatlar masalasidir. Manfaat – biron-bir narsaga jalb etilish darajasi, undagi ishtirok, qiziqish bildirish, moyillikdir. Moddiy jihatdan

manfaat- foyda unum bilan bog‘liq (shu ma’noda “o‘z manfaatlariga ega bo‘lish” degan ibora ishlatiladi). Biror-bir narsaga, hodisaga qiziqishi bo‘lgan odam manfaatdor shaxs deyiladi. Agar bu doimiylik xususiyatiga ega bo‘lsa, u manfaatli shaxsga aylanadi.

“Falsafa. Qomusiy lug‘at” kitobida qayd etilishicha: “Milliy manfaat-millat, xalq hayotini belgilaydigan, uning faoliyatini ma’lum maqsadlarga yo‘naltiradigan ijtimoiy munosabatlar, milliy ehtiyojlar, tafakkur darajasi ma’naviy salohiyat, ruhiyati, an‘ana va qadriyatlar tizimidir.”¹¹⁹

Milliy manfaatlar ehtiyojlarni qondiruvchi sharoit va qadriyatlar bilan birga, ularni yaratish, ta’minlashni belgilovchi ijtimoiy tizimga, munosabatlar va tamoyillarga asoslangan bo‘ladi.

Ular muayyan millat va xalqqa mansub alohida kishilar yoki biror-bir davlat fuqarosi bo‘lgan odamlarning shaxsiy manfaatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu manfaatlarning uyg‘unlashuvini ifodalaydi. Shu ma’noda u umumiy manfaatlar majmusidir.

Manfaatlar xalqlar orasidagi har qanday faoliyatdagi qarash, raqobat yoki hamkorlik asosida yotadi. Uning ta’sirchanlik qudrati ham shunda. Millat yoki mamlakat aholisining ijtimoiy ahvolini ifoda etar ekan, u milliy taraqqiyot kuchlarini harakatga undovchi muhim omil vazifasini bajaradi. Milliy manfaatning namoyon bo‘lishida uning umuminsoniy manfaatlar bilan uyg‘unlikka erishishiga yordam beruvchi ijtimoiy mexanizmda umumbashariy qadriyatlar muhim o‘rinni egallaydi. U milliy ehtiyojlarni qondirishdan manfaatdorlik bilan butun dunyodagi insoniyat taraqqiyot yo‘lidagi maqsadlar orasidagi bevosita aloqani mustahkamlashga yordam beradi.

Manfaatga daxldor narsa - bu insonlarda qiziqish uyg‘otuvchi narsalar, voqealardir. Ular insonlarning amaliy, kundalik ehtiyojlari uchun ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra moddiy va ma’naviy, umumiy va xususiy manfaatlar to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin. Agarda jamiyatga beg‘araz xizmat qilish shaxsiy foyda bilan uyg‘unlashsa, sog‘lom manfaat tug‘iladi. Siyosiy ma’nodagi manfaat ham mavjud bo‘lib, u davlatning o‘z chegaralaridagi va undan tashqaridagi daxldorligini anglatadi.

Shuni alohida aytib o‘tish zarurki, manfaatlar doimo bir-biri bilan muvofiq kelavermaydi. Zero, odamlarning o‘z-o‘zini anglashlari turli tarzda kechadi. Inson o‘z ehtiyoj va manfaatlarini his etish orqali o‘zi uchun zarur yo‘nalishni topa oladi. Shunda u o‘z manfaatlarini ijtimoiy hamkorlik yo‘lida boshqalar manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishga urinadi.

Donolar shuning uchun bejizga “O‘zingni anglab yet!” deyishmagan. Ijtimoiy barqarorlik qoidalarini hayotga joriy etishda manfaatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikka alohida

¹¹⁹ Фалсафа Қомусий луғат. –Т.: “Шарқ”, 267-бет.

e’tibor berish o‘rinli. Bunga adolat asosida erishiladi. Ammo bu masalada bir jihatga e’tibor qaratish foydadan xoli emas. Gap shundaki, hayotda taqdirga ko‘ra omadliroq bo‘lgan guruhlar o‘z ijtimoiy mavqelarini saqlab qolishga, boshqa guruhlar esa iloji boricha o‘zlarining imkoniyatlarini yaxshilashga urinadilar. Shu holatda ziddiyat kelib chiqishi mumkin. Ayniqsa mana shu ziddiyatlarni qonun asosida va demokratik yo‘l bilan hal qilish ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining Toshkent shahrining Shayxontohur tumani, Andijon viloyati hamda Respublikamiz imom-xatiblarining yig‘ilishida yot g‘oyalarga aldanib yoki ongli kirib qolgan fuqarolar bilan ishlash zarur ekanligini alohida qayd qildilar. Ularni dushman hisoblab e’tiborsiz qoldirsak bo‘lmaydi. Ularning tavba qilganlariga, xatosini anglab olganlarga mamlakatimiz fuqarosi sifatida yordam berishimiz zarur. Aksincha, maqsadlarimizni tushunishni xohlamaydiganlarini O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqarishimiz zarur, deb qayd qildilar. Ma’lumki, har bir inson o‘zi uchun jamiyatda maqbul va qulay bo‘lgan imkoniyatlarni qo‘lga kiritishga urinadi. Xudi shunday xatti-harakatlarni boshqa bir individ, soddaroq aytganda oddiy kishi xam sodir etadi.

Oqibatda xatti-harakatlar zid keladi. Shuning uchun jamiyatda barcha uchun barobar “o‘yin qoidalari yoki umumiy talablar bo‘lishi zarur. Erkinlik, o‘zaro hamkorlik va birdamlik asosiga qurilgan ana shunday talablar sharoitida xar kim teng imkoniyatlar sharoitida “start” oladi va keyinchalik o‘z qobiliyati, mehnati, sarmoyasi va harakatiga yarasha jamiyatda o‘z o‘rnini topadi. Chunki, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Bugun biz tarixiy davrda-xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar kuyib, tinch-osoyishta xayol kechirayotgan, avvalambor, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni kulga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz”.¹²⁰

Lekin haqiqiy ijtimoiy hayotda boshqalar manfaatidan ajralib qolgan xudbin manfaatlar ham borki, ular uz mohiyatiga ko‘ra umumiy manfaatlarga zid buladi. Shu ma’noda manfaatlarni muvozanatlashtirish muammosi yuzaga qalqib chiqadi. Unga shaxsiy manfaatlarni o‘zaro muvofiqlashtirish yiriklariga mayda-chuydalarini, istiqbolli manfaatlarga qisqa muddatli manfaatlarni bo‘ysundirish, ular o‘rtasidagi tunashuvni rag‘batlantirish emas, aksincha, uyg‘un holatga keltirish yo‘li bil angina erishish mumkin. Bu o‘rinda nafaqat shaxsiy foydani, balki, hayotda uchraydigan tashvish va kiychiliklarni ham barobar taqsimlash ko‘nikmalariga erishish zarur. Dono xalqimiz bejizga “Hammaga kelgani tuy” deb aytmaydi.

¹²⁰ И.А.Каримов. Юсак маънавият-енгилмас куч-Т.: “Маънавият”. 2008. 105-бет.

Insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning barcha turlari teng huquqlilik qoidalariga asoslangan taqdirda manfaatlar uyg‘unligiga erishishi mumkinligini aytib o‘tish kerak. Hech kim birgalikda ishlab chiqilgan va ayniqsa taqsimlanayotgan moddiy va ma’naviy ne’matlarga befarq emas. Buning ustiga ayrim shaxslar ishlab chiqarish munosabatlaridagi uzlarining haqiqiy o‘rnini va rolini ko‘p xollarda to‘g‘ri baholay olmaydilar. Bu esa ularning zaruridan ortiqcha moddiy ne’matlarga da’vo qilishlariga sabab bo‘ladi. Boshqa shaxslar bunga e’tiroz bildirishlari tabiiy. Natijada yana manfaatlar to‘qnashuvi yuz beradi.

Bugun jamiyatning murakkab rivojlanish davrida manfaatlar o‘rtasidagi nizolarga e’tibor bermaslik xavfli ijtimoiy holatlarga olib kelishi mumkin. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Xar bir odam, oila, qolaversa, butun el-yurtimizning baxt-u-saodati, jamiyatimizning barqarorligi ko‘p jihatdan odamzod tayanib yashaydigan g‘oya va maslakning qanchalik to‘g‘ri va insoniyligiga, bu e’tiqod uning oilasi, farzandlari, xalqining ezgu maqsadlariga, hayotiy manfaatlariga nechog‘li mos kelishiga uzviy bog‘liq”. I.A.Karimov “ Hayotiy manfaatlar” deganda fuqarolarimizning mushtarak manfaatlariga ishora qilmoqda.

Manfaatlarning aniq ifodalangan shakli - bu ularning siyosiy turi ekanligini ta’kidlash o‘rinlidir. Darhaqiqat, manfaat - siyosatning tayanch nuktasi hisoblanadi. Manfaatlar ijtimoiy guruhlarining jamiyat tuzilmasidagi o‘rni bilan bog‘lik ekan, ularning nozik muvozanati siyosatni ham ma’lum ma’noda belgilab beradi. Zero, siyosat hokimiyatda ishtirok etish yoki hokimiyatni taqsimlashga ta’sir etishga urinishdir.

Bir narsani komil ishonch bilan aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda manfaatlarni, fikr va karashlarini birlashtiradigan, ularning mushtarak jihatlarini uyg‘unlashtiradigan yagona mezon borki, bu milliy g‘oya va mafkuradir. Darhaqiqat, xar bir o‘zbekning, o‘zbekistonlikning sog‘lom manfaati millatning manfaatiga mamlakatimizda yashayotgan boshqa xalqlarning ham manfaatiga, xar bir o‘zbekning, xar bir yurtdoshimizning sog‘lom g‘oyasi umummilliy g‘oyaga monand bo‘lishiga erishishimiz zarur.

Jamiyat bir tekisda, nizolarsiz olga qarab rivojlanib boraveradi deb hisoblash hayotga to‘g‘ri kelmaydi. Ijtimoiy nizolarni ijtimoiy keskinlik keltirib chiqaradi. Ijtimoiy keskinlik esa adolatning buzilishini yuzaga keltiradi. Murakkab o‘tish davrida qonunning adolat timsoli ekanligiga shak-shubha yo‘q. Shu ma’noda konstitutsiyaviy tuzim va uning qonunlarining buzilishi adolatning buzilishi hisoblanadi. Masalan, 1996-yil 16-fevraldagi hodisaga sabab bo‘lgan kuchlar jamiyatimizda qaror topayotgan demokratik qadriyatlarni mensimasliklari natijasida, boshqalar hisobiga o‘z maqsadlariga erishish niyatida bo‘lganlar.

Turli tomonlar bir-birining manfaatlarini tan olishi o‘zaro ishonchsizlikdan qutulish, kelishmovchilik, kelishmovchiliklarni birgalikda hal etish teng huquqlilik va demokratiya

sharoitlarida amalga oshadi. Bunda muvozanatga erisha olmagan turli jamiyatlar ijtimoiy to‘y to‘polonlardan, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-etnik, diniy nizolardan. haligacha kutila olmayaptilar.

Ijtimoiy manfaatlarni fuqarolarimiz tomonidan tadrijiy ravishda anglab borish jarayonlarida mustaqillik mafkurasi muhim ahamiyatga ega. Zero, mustaqil yurt bo‘lishdan ko‘zlangan umumiy manfaatlar shaxsiy manfaatlarni anglashga xam xizmat qiladi. O‘rmonda adashgan yo‘lovchi so‘qmoq yo‘llardan katta ravon yo‘lga chiqib olgani kabi, o‘z xususiy manfaatlarini to‘g‘ri anglagan insonlar umummilliy manfaatlarini xam teran tafakkur qila oladilar.

Mamlakatimizda oqibati noaniq bo‘lgan keskin sakrashlar yo‘li emas, balki bir bosqichdan ikkinchisiga tadrijiy tarzda rivojlanish yo‘li tanlab olingan. Fuqarolarimiz ongidagi o‘zgarishlar ham asta-sekin, ammo sobitqadamlik bilan yuz bermoqda. Bu mustaqillik yillarida kulga kiritgan eng ulkan muvaffaqiyatlardan biridir. Shu ma’noda birinchi Prezidentimiz bugungi kunda erkin fuqaro ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxs manfaatini kamol toptirish bizning bosh milliy g‘oyamiz bo‘lishi zarur” degan edi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek manfaatlar tushunchasi mohiyatan murakkab bo‘lib, shaxsiy, guruh, qavm-qarindoshchilik, mahalliy, mintaqaviy, milliy va umuminsoniy shakllarda namoyon buladi. Insoniyat olami, o‘z mohiyatiga ko‘ra, manfaatlar dunyosidir. Yuqorida sanab o‘tilgan manfaatlar shakllaridan tashqari iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik va boshqa turdagi manfaatlar xam mavjud. Jamiyat o‘z boshidan kechirayotgan davr va tarixiy vazifalariga qarab, uning, ya’ni manfaatlarining ma’lum bir shakli yoki turi jamiyatda hal qiluvchi urin egallaydi.

O‘z mustaqilligini mustahkamlash jarayonida O‘zbekiston uchun manfaatlar shakllari va turlari ichida eng ahamiyatlisi, hal qiluvchi o‘rindagisi milliy manfaatlardir. Chunki mustamlakachilik davrida va istibdod yillarida O‘zbekiston va birinchi navbatda, o‘zbek xalqi uz milliy manfaatlarini ko‘zlash, iqtisodiyot berayotgan foydani, nafni uz manfaatlarlariga sarflashda kun jihatdan bebahra edi.

Yer usti va yer osti boyliklari benihoya ko‘p bo‘lgan. O‘zbekiston markazning “sog‘in sigiri”ga aylantirilgan, har yili hisobsiz ko‘p paxta, oltin, volfram, mis, polimetallar, uran, qorako‘l teri, ipak, meva-cheva va boshqa boyliklarni markaz ixtiyoriga jo‘natganlar. Markaz qozonidan ajratilgan o‘z ulushini itoatkorona qabul qilib olar edi. Sanoatning yetakchi sohalarida o‘zbek ishchilari va muhandis-texnikaviy xodimlari 25% dan oshmas edi.

O‘zbekistonda chop etiladigan kitoblar, gazetalar, jurnallar ro‘yxati markaz tomonidan saralanib, tasdiqlanar, milliy ziyolilar qatorida doim “millatchilar” va “yot unsurlar”dan

“utib turilar” edi.

Mustaqil O‘zbekiston o‘z oldiga zamonamizning rivojlangan davlatlari qatorida joy olishni maqsad qilib kuydi. Bu oliyjanob maqsadga erishishning zaruriy shartlaridan biri shundan iboratki, davlat, hukumat, xalq va har bir fuqaro o‘z faoliyatini milliy manfaatlarini himoya qilishni ko‘zlab olib borishi zarur.

Hozirgi zamon rivojlangan davlatlari faqat shu tariqa ish olib borib, farovonlikka erishadilar. Badavlat bo‘lishning asosi ota-bobolarimiz va rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatganidek oqilona iqtisodiyot yuritishda, kam sarf etib, ko‘p naf olishdadir. Milliy boyliklarimizni, imkoniyatlarimizni, salohiyatimizni va boshqa omillarni milliy manfaatlarini ta‘min etish uchun safarbar qilish mustaqil O‘zbekistonning muhim vazifasidir. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “Bugungi kunda O‘zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an‘analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz” deb qayd qilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фалсафа. Қомусий луғат. - Т.: “Шарқ”, 267-бет.
2. И.А. Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. - Т.: “Маънавият”, 2008, 105-бет.
3. Ш.М.Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Е.: “Ўзбекистон”, 2018, 244-бет.
4. Khursandovna, K.G. (2022). From the history or the peculiar deve Development of the national culture of the Surkhandarya people. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 3, 141-146.
5. Худайбердиева Г.Х., Алланазаров М.М. Ёшларни ғоявий тарбиялашнинг усуллари, шакллари ва воситалари // Инновации в педагогике и психологии. – 2020. – №. SI-2№ 1.
6. Худайбердиева Г.Х. (2020). Сущность и особенность и особенности педагогической профессии, её развитие. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1), 180.
7. Khudaiberdieva Gulnora Khursandovna ACTIVITIES OF CULTURAL INSTITUTIONS IN SURKHANDARYA DURING THE SOVIET REGIME. Journal of Education, Ethics and Value. Vol. 4, No. 5, 2025. ISSN: 2181-4392. 81-82.